

Mavzu: Omonatga xiyonat.

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarga "omonatga xiyonat" ertagini o'qib tushuntirib berish

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni do'stlik insonparvarlik vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarni nutqini dunyoqarashini rivojlantirish

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars usuli: Suhbat, savol javob klaster ifodali o'qish

Dars jihozi: darslik rasmlar vatman marker

I. Tashkiliy qism: o'quvchilarni darsga hozirlash.

Tilimizni burro qiluvchi, bilmaganimizni kitob yordamida bizga o'rgatuvchi qaysi darslik ekan. O'qish darsligidir. Mana qo'limda kitob o'qish kitob ham hisob sharillatib o'qiyman bilag'on bo'lay deyman.

O'qituvchi:

Qani meni bolalarim
Mehri daryo buloqlarim
Vatanining tayanchi,
Ustozining ishonchi,
Zukko, oqil donolar
Bir – birdan biyronlar
Bugun hamma sog'lomi?
Darsga barcha tayyormi?

O'quvchi:

Ustoz bizlar sog'lommiz
Darsga to'lliq tayyormiz
Topshiriqlarni bering
Natijasini ham ko'ring

O'qituvchi:

Bir hafta necha kun?

O'quvchi:

Yeti kun-u, yeti tun

O'qituvchi:

O'ylab ko'ring bolalar
Ayting bugun qaysi kun?

O'quvchi:

Haftaning kunlariga
Har xil nomlar qo'yilgan,
Bugun juma kuniga
"Ma'naviyat kuni" deb atashgan

O'qituvchi:

Aytchi, qizim, Gulbeka
Ma'naviyat o'zi nima?
Gulbeka

Ustozim ma'naviyat bu-
Vijdon, iymon, e'tiqod,
Mustahkan irodayu,
Inson ichki dunyosi

O'qituvchi:

Qani bizning navbatchi,
Har narsadan habarchi?

O'quvchi:

Men man bugun navbatchi
Har narsadan habarch

O'qituvchi:

Aytinchi sana nechi,
Qaysi kun-u yili?

O'quvchi:

Bugun oktabr oyining

To'qqizinchi kuni,
41 nafar o'quvchi
Darsda hozirdir bari

O'qituvchi

Ayting dono yurtboshi,
Yilni qanday nomlabdi?

O'quvchi:

Yurtboshimiz Islom Karimov 2015-yilni "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qildilar

Hamma

Keksalarni e'zozlab
Kamolotga yetamiz
Ozod-obod vatanda
Baxtli davron suramiz
Qo'li doimo duoda
Bobojonlar bor bo'lsin
Bizga omad tilagan
Momojonlar sog' bo'lsin

O'qituvchi: Qaysi fasl?

Kuz mavzusida bog'lanishli matn tuzish
Ona diyorumizning oltin kuzi keldi. Tabiyat oltin rannga kirdi. Dov-darahtlar barglari sarg'ayib to'kila boshladi. Dala bog'larda meva sabzavotlar g'arq pishdi. Paxtalar qiyg'os ochildi. Yig'im terimg boshlardi. Kunlar soviy boshladi. Ba'zan yomg'irlar yog'a boshladi.

Kuz faslida qanday bayramlarimiz bor?

1- sentyabr mustaqillik kuni

2- Bilimlar kuni

1- oktyabr ustoz – murabiylar kuni

21- oktyabr ona tiliga davlat maqomi berilgan kun 1989-yil 21-oktyabrda e'lon qilingan o'zbek tilida asoschisi buyuk olim mutaffakir davlat arbobi g'azal mulkinging sultoni bobomiz A.Navoiydir. Bu bobomiz 5 dastondan iborat xammasini o'zbek tilida yozga. Navoiy bobomizga ijodidan namunalar keltiring.

*Oz-oz o'rganib dono bo'lur
Qatra – qatra yig'ilib daryo bo'lur*

*Gurbatta g'aribu shodumon bo'lmas emish
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa
Bulbulga tikondek oshiyon bo'lmas emish*

O'qituvchi:

Oktyabr oyi qanday fan oyligi

O'quvchilar:

Ona tili

O'qituvchi:

Ona tili faniga qanday
She'rlar yod olgansizlar

Tursunboyev Adashboyevchning Ona tilim She'ri

Buyuk temur jahon bo'ylab,
O'z dovro'g'in slogan tilim
Mir alisher bobomlardan
Meros bo'lib qolgan tilim

Bobur mirzo she'rlaridan
Rang va qiyos olgan tilim

Shoh mashrab bulbuldayin
Sayrayotgan ham ona tilim

Mir temirni shoir qilib,
Sayrayotgan ham ona tilim
Shunday tildan tonar bo'lsam
Qiyma – qiyma bo'lsin tilim

Alla bo'lib jaranglagan
Ona tilim jonu dilim

II. uy ishi: Chaqimchiga mukofot (ertak)

O'quvchilar o'qib so'zlab beradilar

Qadim zamonda hokimlardan biri ovga chiqdi . Hokim va u bilan ovga chiqqanlardan biri yerga kelib to'xtadilar hamma biror ish bilan mashg'ul bo'ldi.

Savollar.

1.Kim ovga chiqdi?
Hokimlardan biri

2.Hokim yoniga kimni chaqirdi?
Hokim o'z jilovdori ot boqarini yoniga chaqirdi.

3. hokim ot boqariga nima dedi?
Ukamning shu kunlarda qilgan harakatlaridan shubhaga tushib qoldim, meni o'ldirmoqchi bo'lsa kerak.

4.Jilovdor qanday javob berdi?
Otboqar hokimning sirini saqlashga o'zini asrashga va'da berib, qasam ichdi.


5.Hokim kimdan shubhada ekan?
Hokim ukasidan shubhada ekan

6.Otboqar unga qanday hiyonat qildi?
Otboqar unga bevofoqlik qilib xiyonat ko'chasiga qadam qo'ydi.

7.Hokim vafotidan keyin kim hokim bo'ldi.
Uning o'rniga ukasi hokim bo'ldi

8.yangi hokim otboqarini qanday jazoladi?
Chaqimchi otboqarni dorga osishgan buyruq berdi.

Darsning fikirlash bosqichga yetib keldik
Klaster usulda
Vatman bir tarafiga fazilatlarni bir tarafiga ilatlarni yozing



Xalq og'zaki ijodi janiriga mansub bo'lgan ertaklar xalqimizning asrlar mobaynida ortirgan boy hayotiy tajribasi, kuzatishlar xulosalari asosida yaratilgan, bo'lib, insoniy ma'naviy barkamollik, axloqiy poklik, hushyorlik, ziyraklik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Insondagi fazilat va kamchiliklar ba'zi ertaklarda hayotdagi real qahramonlar orqali ko'rsatilsa, ayrim ertaklarda hayvonlar parandalar misolida yoritiladi. Bolajonlar hozir diqatimizni biron joyga jamlagan holda quydagi lavhani tomosha qilamiz. Oltin tanga ertagi qo'yiladi va kelgan joyidan o'quvchilar davom etirilladi.

Savol

1.Siz bu lavhada nimani ko'rdingiz.

Xo'roz, o'rdak, kurka

2.ular nimalar?

Uy parandalari

3. Ularning foydali tomonlarini ayting?

Tuxumi foyda go'shti va pati

Bu lavha nima ekan?

Multifilm

Multifilm nima haqida ekan?

Oltin tanga

Multifilmni siz qanday yakunlagan bo'lar edingiz?

O'quvchilar multifilmni davom etiradilar

O'qituvchi:

Xulosa: Birovning omonatiga hiyonat qilish kerak emas ekan. Siz hozir parrandalar o'rtasida omonatga xiyonatni ko'rdingiz.

Ertaklarni o'qish sevimli mashg'ulotingizdir. Ertaklardagi qiziqarli voqealar uchar gilamda sayohat, ur to'qmoq, ochil dasturhon, qayna humchaning shirli fazilatlarlari sizni o'ziga tortadi. Ertaklar ham halq qo'shiqlar singari xalq og'zaki ijodi mahsulidir, Ertaklarda xalqning orza – umidlari o'yfikirlari, xohish istaklari o'z aksini topgan.

Bugungi yangi mavzumiz xalq og'zaki ijodidan omonatga hiyonat ertagi bilan tanishamiz.

Kunlardan bir kun bir kishi o'ralgan muhirlangan bir haltachani do'stining huzuriga keltirib:

Savollar

- 1.Safarga ketayotgan kishi o'z do'stiga nima topshirdi?
2. Do'sti omonatga qaytarizda hiyonat qildi?
- 3.Qozi haqiqatni qay tarizda aniqladi?
- 4.Hiyonatchini qanday jazoladi?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash savol javob klasteri

Lug'at ishi

Xiyonat nima?


Birovning ishonchini poymol qilish

Hadislardan namunalar

Fazit --- insondagi yaxshi odatlar fazilatlarimiz qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi.

Illat – kishi fel atvorini yomon xususiyatlar Ularni yo'qotmay turib yaxshi nom olib 'lmaydi.

Odamlar orasida chaqimchilik va bo'hton gaplarni tarqatishdan saqlaninglar.



Rostgo'ylikda xavf-u xatar ko'rsanglar ham faqat rost so'zlanglar. Shunda najot topasizlar. Garchi foyda ko'rib turgan bo'lsangiz ham yolg'ondan saqlaninglar. Chunki baribir yolg'oning oxiri voy.

Kishida eng yomon illat – o'ta baxillik va qo'rqqollikdir.

Garchi Xitoyda bo'lsa ham ilmga intilinglar, chunki, ilm olishga harakat qilish har bir mo'minga farizdir.

Odobni kimdan o'rganish kerak?

Odobsizdan. Nima uchun?

Odobsizning qaysi ishi ko'zimga yomon ko'rinsa o'sha ishlarini men qilmadim.

Xulosa qilib aytganimizda siz o'quvchilar rostgo'y bo'lishsiz, har doim rost so'zlashsiz boshqqalarni, ya'ni ota – onamizni do'stlarimizni aldamasligiz kerak Buning foydasi esa ulg'aygan sari ko'payib boradi.

Qisqa qilib aytganda barcha insoniy fazilatlariga ega bo'lsiz kelajakda haqiqiy komil inson bo'lib yetishasiz.

V. Faol o'quvchilarni baholash va rag'barlantirish.

VI. Uyga vazifa. Omonatga xiyonat o'qib, so'zlab berish.

*Chirchiq shahar XTMFMTvaTEBga
qarashli 11- sonli umumta'lim maktabi
boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi
Djanizakova Yodgoraning
bir soatlik dars ishlanmasi*

*Mavzu : **Omonatga xiyonat***